

SAVOL-JAVOB

Prepared by

SAVOL-JAVOB

Savol: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida dam olish kunlarida yoki ishlanmaydigan bayram kunlarida mehnatga haq to'lash tartibi to'g'risida tushuncha bersangiz.

Javob: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 263-moddasi - dam olish kunlarida yoki ishlanmaydigan bayram kunlarida mehnatga haq to'lash.

Dam olish kunlaridagi yoki ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish uchun quyidagilarga kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi: ishbay ishlovchilarga – kamida ikki hissali ishbay baholar bo'yicha;

mehnatiga kунбай va соатбай tarif stavkalari bo'yicha haq to'lanadigan xodimlarga – kунбай yoki соатбай tarif stavkasining kamida ikki hissasi miqdorida;

maosh oladigan xodimlarga – har bir ishlangan kun yoki соат uchun maoshdan tashqari kунбай yoki соатбай stavkasining kamida bir hissasi miqdorida.

Jamoa shartnomasida, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qabul qilingan ichki hujjatda, mehnat shartnomasida dam olish kunlaridagi yoki ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish uchun qo'shimcha to'lovlarning yuqoriq miqdorlari nazarda tutilishi mumkin.

Dam olish kunidagi yoki ishlanmaydigan bayram kunidagi ish xodimning xohishiga ko'ra boshqa dam olish kunini berish bilan kompensatsiya qilinishi mumkin.

Dam olish kunidagi yoki ishlanmaydigan bayram kunidagi ish boshqa dam olish kunini berish bilan kompensatsiya qilingan taqdirda, bunday ish uchun haq to'lash kamida bir hissa miqdorida amalga oshiriladi, dam olish kuni uchun esa haq to'lanmaydi.

Agar xodim jadvalga yoki mehnat shartnomasiga muvofiq umumiy belgilangan dam olish kunlarida (besh kunlik ish haftasida shanba yoki yakshanba kunlari yoki olti kunlik ish haftasida yakshanba kuni) mehnat qilgan bo'lsa, dam olish kunlari esa unga ish haftasining boshqa kunlarida berilgan bo'lsa, umumiy belgilangan dam olish kunlaridagi ish uchun bir hissa miqdorida haq to'lanadi.

Ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish uchun, ushbu ish jadvalga binoan amalga oshirilganligidan yoki xodim mazkur Kodeksning 210-moddasiga muvofiq ishlanmaydigan bayram kuni ishga jaib etilganligidan qat'i nazar, kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi yoxud xodimning xohishiga ko'ra boshqa dam olish kunini berish va bir hissa miqdorida haq to'lash orqali kompensatsiya qilinadi.

F.Toshpulatov - So'x tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-13 15:24:21